

Erejepov Tuyana Baxtiyarovich,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali
Folklor va etnografiya kafedrasi o'qituvchisi

TALABALARDA CHOLG'U IJROCHILIGINI MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGNING ROLI

ANNOTATSIYA: Maqolada talabalarda cholg'u ijrochiligi mahoratini takomillashtirishda pedagogning o'rni va kasbiy mahorati tahlil qilingan. Ta'lif jarayonida pedagogning ijodiy yondashuvi, shaxsiy namunasi va texnik mahoratni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalari asosida talabalarining badiiy tafakkuri va musiqiy dunyoqarashi shakllanishining amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, cholg'u ijrochiligini talabalarga o'rgatishda innovatsion metodlar foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan.

KALIT SO'ZLAR: cholg'u ijrochiligi, pedagogik mahorat, ijro texnikasi, metodika, ijodkorlik, musiqiy ta'lif, milliy cholg'u an'analari, innovatsion yondashuv.

KIRISH. Cholg'ularda har bir xalqning milliy g'ururi, an'anasi, qadriyatlari o'z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Musiqiy cholg'ularda ijrochilik san'ati insoniyat ma'naviyatini tarannum etuvchi vosita, ya'ni xalq ijodiyoti maxsuli bo'lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallahib kelayotgan mo'jizaviy va ifodaviy asboblardir. Bular barchasi yaratilajak cholg'ularning shakliga va milliylik mezoniga asos bo'lib xizmat qiladi. Tarix davomida, doimo musiqiy cholg'ularga bo'lgan e'tibor katta bo'lish bilan birga tarbiyaviy tomonlari ham alohida ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

Xalq cholg'ulari uzoq o'tmishda paydo bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki musiqa cholg'ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinmoqda. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan. Chunki eng qadimgi mehnat qo'shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Undan keyin shovqinli cholg'ular paydo bo'ldi, ijrochilar qarsak chalib ritmni ta'kidlagan, shovqinli cholg'ular ta'sirini ko'paytirganlar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o'ziga xos, takrorlanmas go'zal holatni vujudga keltirar edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR: Musiqiy san'at inson qalbiga ta'sir etuvchi kuchli vosita sifatida nafaqat estetik, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Ayniqsa, cholg'u ijrochiligi, musiqaning badiiy mohiyatini ifoda etishning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayonda pedagogning o'rni beqiyosdir. Pedagog nafaqat o'quvchilarga texnik mahorat va nazariy bilimlarni o'rgatadi, balki ularning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda ko'maklashadi. Zamonaviy musiqiy ta'linda pedagogdan ijro texnikasini rivojlantirish bilan birga, talabalarni innovatsion g'oyalarga undash, milliy cholg'u madaniyatini o'rgatishda zamonaviy metodlarni qo'llash va ularni ijodkor shaxs sifatida shakllantirish talab etiladi. Cholg'u ijrochiligini o'rgatish jarayonida pedagogdan o'ziga xos yondashuvlar, badiiy va texnik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ularning amaliy mashg'ulotlarining samaradorligini yanada takomillashtirish, ilmiy va metodik jihatdan professional bo'lish talab etiladi.

Jadal rivojlanib borayotgan ta'lif tizimi yangiliklaridan muntazam ravishda xabardor bo'lish, fan va pedagogikaning yangi texnologiyalarini faoliyatida samarali qo'llay olish hozirgi

zamon pedagoglarining asosiy vazifalaridandir. Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati va ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar ham ayni shu masalalarga qaratilmoqda. Hozirda jahon bo‘ylab keng ommalashgan musiqiy kompyuter dasturlari, nota muharrirlari imkoniyatlaridan ta’lim jarayonida samarali foydalanish lozim. Ta’lim innovatsiyalari muammolarini hal etishda o‘qituvchining faoliyati haqida masala eng muhim masala bo‘lib turibdi. Pedagogning ijodiy potensiali uning kreativligi, ya’ni ijodkorligi shaxsiyatini shakllantirishga intilishida, pedagogik odobnung namoyon bo‘lishi, empatiya, qobiliyat, tasavvurni rag‘batlantirish, humor hissini rivojlantirish, qiziqrli, kutilmagan, paradoks savollarni qo‘yish o‘quvi, talabalarni savol berishga jalb qilish o‘quvi va hokazo orqali oshirilishi mumkin.

Rus pedagogi Y.I. Ilin: “Pedagogika “quyma quyish”dan foydalanish mumkin bo‘lgan soha emas. Uni nusxa ko‘chirib, seriyalab amalga oshirib bo‘lmaydi. Chunki bir odamga yaraydigan uslub boshqa odamga to‘g‘ri kelmasligi mumkin, shunday bo‘ladi ham. Bu nusxa ko‘chirib, har bir odamning potrefeliga solib qo‘yish mumkin bo‘lgan “kalit” emas, balki biror yakka tartibda ishlanadigan “ochqich” bo‘lib, u faqat mohir usta qo‘llaridagina ish beradi”, – deb ta’kidlaydi. Talabalarda cholg‘u ijrochilagini mahoratini takomillashtirishda pedagogning ijodiy yondashuvi quyidagi asosiy jihatlar bilan tavsiflanadi:

Individual yondashuv – har bir talabada ijro qobiliyatları va qiziqishlar har xil bo‘lgani sababli, pedagog ularning shaxsiy ehtiyojlari va o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olishi kerak. Bu, talabaga mos keladigan metodika va repertuarni tanlashni talab qiladi. Cholg‘u ijrosi bilan shug‘ullanish natijasida o‘quvchi ham aqliy, ham jismoniy charchashi sababli uning dam olishiga bir oz vaqt ajratilishi kerak. Aks holda ijroning sifati yomonlashib, xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Insonlar individual xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilishi ma’lum. Mutlaqo bir xil xususiyatlari odamlar bo‘lmaganidek, har bir o‘quvchining xususiyatlari ham o‘ziga xos va takrorlanmasdir. Ta’lim - tarbiyaning talablari esa barcha o‘quvchilar uchun yagona bo‘lib qolaveradi. Samarali natijaga erishish uchun o‘quvchilarga nisbatan pedagogik vositalarni qanday qo‘llash kerak? Ta’lim ishida o‘quvchilarning individual xususiyatlarni hisobga olish, shu xususiyatlar asosida ishni tashkil etish yuqoridaq savolga ma’lum darajada javob bo‘lishi mumkin.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga individual yondashish muammosi ijodiy xarakterga ega. Bu jarayonning har bir bosqichiga oldindan aniq ko‘rsatma berib bo‘lmaydi. Pedagogikada tarbiyalanuvchilarga individual yondashish masalasi ta’lim - tarbiya ishining barcha bo‘g‘inlarini o‘z ichiga oladi. Individual yondashishning mohiyati o‘quvchi oldiga qo‘yilgan umumiylar tarbiya vazifasining har bir o‘quvchiga, uning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik ta’sir ko‘rsatish orqali amalga oshirilishishidir. Amalda xulqi, xarakteri, salohiyati turlicha bo‘lgan o‘quvchilarni uchratish mumkin. Bazi o‘quvchilarning qobiliyatları yoshlik chog‘laridanoq sezilsa, boshqalarida qobiliyatni aniqlash ancha vaqt talab etadi. Ayrim o‘quvchilar sho‘x, o‘yinqaroq bo‘lib, ko‘p narsaga qiziqsalar, boshqalari vazmin, bosiq bo‘ladilar. O‘quvchilarning xarakter va xulqlari qanday bo‘lishidan qat’iy nazar ularga o‘qituvchining e’tibori talab etiladi.

O‘quvchilarga induvidual yondashish birinchi, navbatda ularda ijobiy sifatlarni mustahkamlash va salbiylarini yo‘qotishga qaratiladi. O‘quvchilarning salbiy sifatlarini o‘qituvchi vaqtida sezib, bartaraf etish choralarini ko‘rishi, kelajakda o‘quvchini qayta tarbiyalashdek qiyin ishning oldini oladi. Tarbiyada individual yondashish samaradorligini oshirishda o‘quvchi xarakteridagi ijobiy sifatlarga tayanish foydali, degan fikr avvaldan ma’lum.

Badiiy talqin va ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash – talabalarning musiqiy tafakkuri va badiiy tasavvurlarini rivojlantirish pedagogning asosiy vazifalaridan biridir. U ijrochilik jarayonida talabalarni musiqiy asarlarni chuqur tushunishga va badiiy talqin qilishga o'rgatishi kerak. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish – zamonaviy o'qitish texnologiyalari va raqamli platformalarni ijro jarayonida qo'llash talabalarni motivatsiya qilish va texnik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'yndaydi. Misol uchun, virtual cholg'ular yoki ijrochilikni tahlil qiluvchi dasturlarni o'rgatish jarayoniga joriy etish samaradorlikni oshiradi.

Milliy va zamonaviy cholg'u ijrochiligi uyg'unligi – pedagog ijro jarayonida milliy cholg'u asboblarining o'ziga xosligini va zamonaviy ijrochilik texnikalarini integratsiya qilishi kerak. Bu talabada milliy madaniyatga hurmatni kuchaytirib, ijodkorlikni rivojlantiradi.

Ijodiy erkinlikka yo'l ochish – talabalarni ijro jarayonida o'z fikrini bildirishga va ijodkorlikni qo'llab-quvvatlashga undash muhimdir. Bu, ularning musiqiy tasavvurini kengaytirib, ijro jarayoniga yangilik olib kiradi.

Motivatsion yondashuv – pedagog talabalarni ilhomlantirishi, ularni ijro jarayonida muvaffaqiyatga erishishga intilishga undashi kerak. Bu maqsadda maqtov, tanlovlarda ishtirok etish va musiqiy yutuqlarni tan olish juda muhimdir.

Texnik ko'nikmalarini badiiy maqsad bilan uyg'unlashtirish – ijro texnikasi talabalarning badiiy ifodalilik qobiliyatlari bilan uyg'unlashishi kerak. Pedagog ijro texnikasiga emas, balki musiqiy ifodalilikka asosiy e'tiborni qaratadi, chunki musiqaning ta'sirchanligi shu omil bilan bog'liq.

Tahlil va qayta aloqa – pedagog ijro jarayonini tahlil qilib, talabaga aniq va konstruktiv fikr-mulohazalar beradi. Bu talabaga o'z xatolarini tushunib, ularni bartaraf etishga yordam beradi.

Talaba o'z o'qituvchisining ko'rsatma va fikrlariga ko'rko'rona ergashib bo'ysunishi emas, balki biror masala yuzasidan o'zining shaxsiy munosabatini ijro orqali bildira olishi kerak. O'qituvchi rahbarligida o'tiladigan darsning ahamiyati katta, lekin bu ish o'quvchining mustaqil ishlari muhimligini inkor etmaydi, O'quvchining mustaqil mashg'ulotiga sarf bo'layotgan vaqtini bekor o'tkazmasligini o'rganib borish kerak. Buning uchun o'quvchiga mustaqil mashg'ulotni qanday tashkil qilish, nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligini tushuntirish lozim. Vaqtdan ratsional va umumli foydalanish mustaqil ishslash asosi prinsiplaridan biri bo'lishi zarur. Asosiy prinsiplaridan yana biri mashg'ulotning muntazamligidir. Ijroni o'rgatishning dastlabki davridan boshlab o'quvchida muntazam mustaqil ishslashni ko'nikmasini hosil qilish zarur. Odatda, muntazamlikka erishish qiyin bo'lsa ham, bunday mashg'ulotlar asta-sekin odat tusiga ko'rib borishi maqsadga muvofiqdir. Hozirgi paytda o'quv yurtlaridagi o'zlashtiriladigan ma'lumotlar miqdorining ortib borishi, kam vaqt sarf qilib ko'proq natijaga erishishni taqozo etadi. To'g'ri fikrlay oladigan va mustaqil ishlay biladigan sozandani shakillantirish o'qituvchining asosiy vazifasidir. O'qituvchi faqatgina cholg'uchilk san'atini o'rganayotgan o'quvchi bilan emas, balki tom ma'noda tarbiyalanuvchi bilan ishlayotganini his etishi lozim.

Ishga xuddi mana shunday yondashish kerak, zamonaviy fan ta'lim va rivojlanishni ilmiy nuqtai nazardan chuqur va har taraflama o'rganibdi. Ta'lim va rivojlanish jarayoni bir - biri bilan uzviy bog'langan. Rivojlanish ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. O'quvchilarining muayyan bilim, ko'nikmalarini o'zlashtirishlarining individual xususiyatlari, ongning qanchalik rivojlanganligi ta'lim jarayoniga ta'sirini o'tkazadi. Kimning ong va intellekt darajasi rivojlangan bo'lsa, u turli bilim va ko'nikmalarini oson va tez o'zlashtira oladi.

XULOSA: Cholg‘u ijrochiligin talabalarga o‘rgatishda innovatsion metodlar nafaqat ta’lim sifatini yaxshilaydi, balki talabalarni ijodkor, mustaqil fikrlaydigan va mahoratli ijrochi sifatida shakllantirishga yordam beradi. Ushbu yondashuv musiqiy ta’limni zamonaviy talablar darajasiga ko‘taradi va milliy madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Cholg‘u ijrochiligin talabalarga o‘rgatishda pedagogning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun ba’zi keng tarqalgan xatolardan qochishi juda muhim. Har bir talabada o‘ziga xos qobiliyat, o‘rganish sur’ati va qiziqishlar mavjud. Bir xil yondashuvni barcha talabalar uchun qo‘llash ijro salohiyatini to‘laqonli rivojlantirishga to‘sinqinlik qilishi mumkin. Talabaning ehtiyojlariga mos o‘qitish usullarini ishlab chiqish va shaxsiy o‘quv dasturlarini shakllantirish zarur. Faqat texnik mahoratga urg‘u berish nazariy bilimlarning sustligiga olib kelishi mumkin. Bu esa talabada musiqiy asarlarning falsafiy va badiiy mazmunini to‘g‘ri anglamaslikka sabab bo‘ladi. Shu sabab talabaning nazariy bilmlarini ham takomillashtirib borishiga ahamiyat berish kerak. Nazariy va amaliy ta’limni muvozanatlari tashkil etish. Har bir ijro jarayonida asarning tarixi va mazmuniga alohida e’tibor qaratish kerak. Faqat aniq ko‘rsatmalarga asoslangan ta’lim talabaning ijodkorligini cheklashi mumkin. Bu ijro jarayonida quruq texnik ifodalarga olib keladi. Talabaga o‘z talqinini shakllantirish va ijroda ijodiy erkinlikka yo‘l ochish ham davr talabi hisoblanadi. Doimiy tanqid va bosim talabani ijordan uzoqlashtirib, unga nisbatan qiziqishni yo‘qotishiga olib kelishi mumkin. Tanqidni konstruktiv va rag‘batlantiruvchi shaklda berish. Kamchiliklarni ko‘rsatish bilan birga muvaffaqiyatlarni e’tirof etish ham pedagogning mahoratiga kiradi. Talabaning darajasiga mos kelmaydigan murakkab yoki qiziqish uyg‘otmaydigan repertuarni tanlash talabani charchatishi yoki motivatsiyani pasaytirishi mumkin. Talabaning texnik va badiiy qobiliyatlariga mos repertuar tanlash, uni bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish zarur. Shu bilan birga, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanmaslik ta’lim jarayonini eskirgan va samaradorlikdan yiroq qiladi. Interaktiv darsliklar, raqamlı platformalar va tahliliy dasturlarni o‘quv jarayoniga joriy etish kerak.

Cholg‘u ijrochiligin talabalarga o‘rgatishda pedagogning har bir xatosi ta’lim sifatiga va talabaning ijro mahoratiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, pedagog individual yondashuvni saqlagan holda ijodiy, badiiy va zamonaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirishi, motivatsion muhit yaratishi va har bir talabaning rivojlanishiga ko‘mak berishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:

1. Raxmatov E., Maxamatov A. Xalq cholg‘u asboblarining shakllanishi va uning tarbiyaviy ahamiyati// konf. “Musiqa ta’lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy yondashuvning dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi. – Jizzax: JDPU, 2022. – 460 bet.
2. Abilov M. Musiqa o‘qituvchisining innovatsion pedagogik mahoratini rivojlantirish// konf. “Musiqa ta’lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy yondashuvning dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi. – Jizzax: JDPU, 2022. – 460 bet
3. Rahimov Sh.N Tarbiya jarayonida talabalarga individual yondoshish// konf. “Musiqa ta’lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy yondashuvning dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi. – Jizzax: JDPU, 2022. – 460 bet
4. Rahimov Sh., Yusupov Sh. Cholg‘u ijrochiligi. – Toshkent.: Musiqa nashriyoti, 2011. 88 b.